



## O'ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI

Ziyayeva Jasmina Abramot qizi

Toshkent Xalqaro universiteti talabasi

M.Z.Ziyodullayev

Ilmiy rahbar: Yuridik fanlar doktori. Prof.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17589256>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-noyabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 10-noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 12-noyabr 2025 yil

### KEYWORDS

*davlat xizmati, islohotlar, raqamli boshqaruv, davlat xizmatlari markazlari, shaffoflik, samaradorlik, byurokratiyani qisqartirish, elektron hukumat, inson manfaatlari. Mobil-ID tizimi*

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekistonda davlat xizmatini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Xususan, davlat boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, raqamli boshqaruv tamoyillarini joriy etish, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini soddalashtirish hamda inson manfaatlariga yo'naltirilgan samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish yo'lidagi chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, amalga oshirilgan islohotlarning natijasida davlat xizmatlari sifati, shaffoflik darajasi va fuqarolarning davlat idoralari bilan o'zaro munosabatlarida qulaylik sezilarli darajada oshgani tahliliy asosda bayon etilgan.*

Jamiyat hayotining tobora demokratlashib borishi davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, aholining davlat organlari bilan munosabatga kirishishda inson omilini minimallashtirish, byurokratik jarayonlarni qisqartirish, xizmatdan foydalanuvchilarning vaqti va xarajatlarini kamaytirish hamda ma'muriy tartib-taomillarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi taraqqiyot asrida barcha sohalar qatori davlat xizmati sifatini yanada oshirishga, undagi kadrlar malakasini ko'tarishga hamda chuqur salohiyatli va tadbirli, malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Davlat idoralarining xalqimizga xizmati odamlarni rozi qilishning asoslaridan biri. Qaysi qishloqda, mahallada qaysi xizmatga ehtiyoj borligiga qarab, shunga sharoit yaratish kerak. Qaysi xizmatlarni arzonlashtirish, qaysilarini bepul qilish masalasini tahlil etib, aholiga yengillik va qulaylik yaratish zarur"[1]

"Iqtisodiy, ayniqsa, siyosiy islohotlar muvaffaqiyati, avvalo, boshqaruv sohasidagi kadrlarni tayyorlash darajasiga, ularning bugungi o'zgarishlarni amalga oshirish istagi va layoqatiga bog'liq. Xuddi shu bois ham davlat xizmatchilarining maqomi to'g'risida qonun qabul qilish zarurati sezilmoqda. Bu qonunda va uning asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarda davlat xizmatchilarini tanlab olish tizimi, ularning huquq va burchlari, mas'uliyati, unib-o'sishi, ijtimoiy himoyasi, imtiyozlari belgilab berilgan bo'lar edi"[2].

### Asosiy qism

Yurtimizda davlat xizmatlari borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ushbu islohotlarning debochasi, ya'ni boshlang'ich davri sifatida 2012-yil 30-dekabrda 378-sonli Vazirlar Mahkamasining "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi hukumat portalini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun bo'ldi. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada ko'proq joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek elektron shaklda ma'lumotlarning to'liq ayirboshlanishini, so'rovlarni rasmiylashtirish tartibotlarini jadallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari va aholining o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi ushbu qaror loyihasini ishlab chiqdi. Ushbu qaror o'z ichiga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini yaratishni va ushbu portal faoliyati to'g'risidagi nizom hamda Vazirlar Mahkamasining qaror matni qismini qamrab oladi. Mazkur portalning vazifalaridan biri davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning asosiy nuqtasi bo'lib xizmat qildi.

Yagona portal foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish, foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash, foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish, davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish, "elektron hukumat"ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko'maklashish hamda yagona portal zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida interaktiv davlat xizmatlari olishda foydalanuvchining shart-sharoitlarini rivojlantirish va imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan tizim sifatida shakllantirildi.[3] Umuman olganda, ushbu birgina qaror orqali yuqoridagi vazifalar o'z samarasini bermasdan qolmadi. Yagona davlat interaktiv xizmatlari portali orqali birgina 2022-yil sarhisobi bo'yicha onlayn xizmatdan foydalanuvchilar soni 3 million tani tashkil qilgan bo'lsa, onlayn xizmatlarning turlari 355 taga yetganligi statistik ma'lumotlarda qayd etilgan. Bugungi kunda 500 dan ziyod elektron davlat xizmatlari xalqqa xizmat qilib kelmoqda.[4]

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga yuklangan vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida malakali va yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan xorijda yashayotgan vatandoshlarni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining rahbar lavozimlariga va maslahatchilar sifatida jalb qilish. [5] Davlat rahbarining farmoniga muvofiq, 2018-yil 1-apreldan O'zbekiston Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etilib, yangi konsepsiya asosida ishlashni boshlagan edi. O'tgan vaqt mobaynida agentlik tizimi takomillashib, xizmat qamrovi kengayib bordi.

Bugungi global tendensiyalar va davr talabining ortib borishi sharoitida mamlakatimizda davlat va fuqaro munosabatlari samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida davlat xizmati sohasini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga qulay va tezkor davlat xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy infratuzilmasi

barpo etildi. Bu sohadagi islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yillar davomida bu sohaga doir ko'pgina farmon qarorlar qabul qilinmoqda. Yurtimiz davlat xizmatlari sohasida aksincha boshqa sohalarda ham juda katta burilishlar va katta islohotlar ketmoqda. Xalqimizni og'irini yengil qilish uchun ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yilning 20-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-113-son Farmoni qabul qilindi.

Yurtimizda davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini qulay va oson shakllarda ko'rsatish ko'lamini oshirish va fuqarolarning idorama-idora sarson bo'lib yurishining oldini olish, davlat organlari axborot tizimida mavjud ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirishga ahamiyat qaratilmoqda. Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun Mobil-ID tizimini, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarni "Elektron hukumat" tizimidan foydalangan holda taqdim etishning yangi tartibini joriy etish bo'yicha tashkiliy-texnik choralarni amalga oshirsin.

So'nggi yillarda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga qulay va tezkor davlat xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy infratuzilmasi barpo etildi. Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishini ta'minlash maqsadida 2017-yilda har bir tuman (shahar)da davlat xizmatlari markazlari (keyingi o'rinlarda — Markaz) tashkil etildi. Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini isloh qilish natijasida mavjud 750 dan ortiq davlat xizmatlaridan 172 tasi Markazlar, 308 tasi esa O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda — YIDXP) hamda "Litsenziya" axborot tizimi orqali interaktiv shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga qadar 207 ta Markazlar hamda ularning 141 ta filiallari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga jami 32 mln.dan ortiq xizmatlar ko'rsatildi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishning umumiy muddati deyarli 787 kundan 471 kungacha qisqartirildi. Tadbirkorlik sohasida 132 ta litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillari bekor qilindi. Aholiga davlat xizmatlaridan foydalanishda qulayliklar yaratish bo'yicha davlat xizmatlaridan eksterritoriallik tamoyili bo'yicha foydalanish tartibi joriy etildi hamda davlat idoralari tomonidan fuqarolar va tadbirkorlardan jami 73 ta hujjat hamda ma'lumotnomalarni talab qilish amaliyoti bekor qilindi. Markazlar orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishni joriy etish natijasida 200 dan ortiq tartib-taomillar qayta ko'rib chiqilib, soddalashtirildi. Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini isloh qilish natijasida 2018–2022-yillarda Davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatilayotgan xizmat turlari qariyb 7 baravarga ortib, 37 tadan 261 taga yetkazildi. 2022-yilda 78 ta davlat xizmatini ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mavjud bo'lgan 771 ta davlat xizmatidan 261 tasi Davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatilmoqda. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda talab etiladigan hujjatlar soni 221 tadan 95 taga qisqartirildi. 73 turdagi hujjat, masalan, ruhiy kasalliklar va narkologiya bo'yicha hisobda turishi yoki turmasligi; sudlanganlik; manzil-ma'lumot axboroti; fuqaroning nomida uy-joy mavjud yoki mavjud emasligi; turar joyning maydoni; soliq qarzi mavjud yoki mavjud emasligi; pensiya va nafaqa miqdori; pensiya va nafaqa oluvchilar ro'yxatida mavjudligi; nikoh qayd etilganligi yoki nikohdan ajralganligi; shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi; shaxsning fotosurati; mehnat

daftarchalari nusxalarini, ish haqi va ish stajini tasdiqlovchi ma'lumotni, davlat boji va yig'imler to'langanligini tasdiqlovchi hujjat kabilarning qisqartirilishi natijasida yiliga o'rtacha 20 mln aholiga qulaylik yaratildi, ularning 300 mlrd so'mdan ortiq mablag'i tejalishiga erishildi.

uqoridagi farmon bilan davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu strategiyada tizimni isloh qilishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab olinganini ko'rish mumkin. Strategiya quyidagi ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutadi:

davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish va ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligini oshirish;

sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish va mavjud ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish, konfidensial axborotlarning xavfsizligini ta'minlash;

davlat xizmatlarining yangi turlari va shakllarini joriy qilish, xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish;

davlat xizmatlarini ko'rsatishda vakolatli idoralarning mas'uliyatini yanada oshirish, aholiga o'z vaqtida xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;

xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rnini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish[6]

Davlat xizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslar uchun foydalanishga oson, qulay va shaffof shakllarda ko'rsatish ko'lamini oshirish, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat xizmatini ko'rsatishda barcha uchun teng sharoitlarni vujudga keltirish orqali inklyuziv muhitni yaratishdan iborat. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda fuqaro e'tibor markazida (Citizen — centric service). Bu tamoyil davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi undan foydalanuvchi uchun maksimal qulaylik yaratgan holda yo'lga qo'yilishini nazarda tutadi. Bu, o'z navbatida, davlat xizmatlarini joriy etish va takomillashtirishda foydalanuvchilarning faol ishtirokini ham taqozo etadi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish va ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligini oshirish yuzasidan ham bir qator vazifalar belgilanib, bugungi kunda o'z amaliy ifodasini topib bormoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 8-avgust kuni imzolangan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonunni. Davlat fuqarolik xizmati deganda "davlat xizmatining bir turi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyati tushuniladi". Qonunning amal qilishi Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi. U prezident, Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari, Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyat organlari deputatlari, yuqori va quyi palatalar devonlari xodimlari, Markaziy saylov komissiyasi a'zolari, sudyalalar va sud tizimi xodimlari, Markaziy bank boshqaruvi a'zolari, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, Milliy gvardiya, Davlat bojxona qo'mitasi va Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmat qilayotganlar, shu jumladan, harbiy xizmatchilar, qolaversa, davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xodimlarining

faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi. Qonunga muvofiq, davlat fuqarolik xizmati sohasidagi maxsus vakolatli organ etib Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi belgilandi. U o'z vakolatlari doirasida davlat idoralarining kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat xizmatiga kadrlarni tanlov asosida tanlashni tashkil qiladi, davlat xizmatchilarining samaradorligini baholash uchun indikatorlar (asosiy ko'rsatkichlar) tizimini joriy qiladi va ularning natijalarini tahlil qiladi, jamoatchilik fikrini o'rganadi va davlat organlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirishda ishtirok etadi.

O'zbekiston fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e'tiboran davlat fuqarolik xizmatchisi (DFX) huquqiy maqomiga ega bo'ladi va davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan uni yo'qotadi. Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga taalluqli davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha huquqlar, majburiyatlar va cheklovlar alohida qonunchilik bilan belgilanadi.[7]

Davlat xizmati tizimidagi faoliyatning umumiy va to'laqonli samarador ishlashida davlat xizmatchisining malakasi va uning chuqur salohiyatli kadr ekanligi e'tiborga molik jihatlardan va zaruriy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, har qanday salohiyatli kadr o'z ishini rivojlantirish va unga yangilik olib kirish borasida ulkan samarali ishlarni amalga oshira oladi. Bunday malakali va salohiyatli kadrlarni saralab olish nihoyatda mushkul vazifadir. Davlat xizmati tizimidagi faoliyatning umumiy va to'laqonli samarador ishlashida davlat xizmatchisining malakasi va uning chuqur salohiyatli kadr ekanligi e'tiborga molik jihatlardan va zaruriy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, ushbu jarayonda shaffoflik va adolatni ta'minlashning o'zi ham bir mashaqqatli vazifa bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni saralab olishda xalqaro tan olingan meritokratiya tamoyiliga asosan ish ko'rilmoqda. Kadrlarni saralab olishda ham 2020-yilda yagona kadrlar platformasi – argos.uz tizimi tashkil etilgan bo'lib, ushbu tizim bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Xususan, nomzoddan dastlabki bosqichda hudud va lavozimning maqbul varianti tanlanadi va undan so'ng davlat fuqarolik xizmatiga ishga kirmoqchi bo'lgan nomzod o'z shaxsiy hujjatlari va ma'lumotlarini tizimga joylaydi agarda tizim ushbu ma'lumotlarning nomzodga qo'yilgan talablarga mosligi shartlari bo'yicha qabul qilinganligini avtomatik ravishda aniqlaydi hamda hujjatlar orqali nomzodni o'rganish keyingi bosqichga o'tkaziladi. Oxirgi jarayonda esa, nomzod test jarayonidan o'tkaziladi, undan so'ng esa nomzod bilan yakka tartibda suhbat jarayoni olib boriladi. Yuqoridagi saralash tizimi naqadar shaffof va adolatli ekanligini davlat fuqarolik xizmatida faoliyat olib borayotgan kadrlarning malakali va salohiyatli ekanligida ko'rishimiz mumkin.

Prezident huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi yetakchi inspektori Abdulla Abdiyev tizimdagi xodim sifatida ushbu yuqoridagi kadrlarning saralash jarayoni to'g'risida o'z maqolasida quyidagicha ta'rif berib o'tgan. "Hozirga qadar 1 million 275 mingdan ortiq nomzod 103 mingdan ziyod tanlovda ishtirok etib, 44 ming nafardan ortiq g'oliblar aniqlandi va turli lavozimlarga tayinlandi. Ushbu tanlovlarda o'rtacha bir o'ringa 12-13 nafar nomzod da'vogar bo'lib ishtirok etgani e'tiborga molikdir. Boisi, davlat fuqarolik xizmatiga ishga kirishning bunday shaffof tizimi yaratilayotganligi sohada raqobat muhitini yana-da kuchaytirmoqda. Davlat fuqarolik xizmati nufuzini oshirmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida, xususan, oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalarning o'z ustida ishlashi orqali qo'shimcha bilim va ko'nikmalarini egallab borishiga turtki bermoqda" [8] Davlat xizmatchilarini isloh qilish, ularning kasbiy salohiyatini

oshirish va mehnat faoliyatini samarali rag'batlantirish masalalari bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda bir qator Qozog'istonlik olimlar — А.М. Байменова, А.Г. Мухамеджановой, А.Е. Кульжамбековой, С.Г. Капарова, А. Турис-бек tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda davlat xizmatchilarini tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, motivatsiya tizimini takomillashtirish hamda kadrlar siyosatini samarali tashkil etish masalalari atroflicha yoritilgan.

Xorijiy tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatini rivojlantirish va uni zamonaviy boshqaruv tamoyillariga moslashtirish yo'lida ko'plab olimlar o'z ilmiy ishlarini bag'ishlagan. Xususan, М. Вебер, Н.Д. Баквальтер, Р.Е. Клири, Д.Л. Перри, К. По-лит va boshqa tadqiqotchilar o'z asarlarida davlat xizmati tizimini takomillashtirish, byurokratik boshqaruvni optimallashtirish hamda xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.[9]

Jamoat xizmatining umumiy jihatlarini, asoslarini, turlarini, tashkiliy-huquqiy asosini, o'tish tartibini hamda davlat xizmatchisining huquqiy maqomini belgilovchi yagona qonunning yo'qligi ko'plab muammolarga sabab bo'lgan. Davlatning rivojlanishi, avvalo, jamoat xizmatini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liqdir. Davlat organlarining samarali faoliyati ko'pincha ushbu qonunni qabul qilishni talab qiladi. Xususan, huquqshunos olim E.V.As Okhotsky ta'kidlaganidek: "Davlat xizmatchilari qaysi intilish va manfaatga ega bo'lmasin, davlat shu yo'nalishda ham rivojlanadi." [10] Shuningdek, rus olimi Черепанов В.В ko'ra, jamoat xizmati — bu xizmatning asosiy mazmuni, bosqichlari, tartibi va jarayonlarini belgilovchi huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimidir. Jamoat xizmati vakolatlari amalga oshirilishi jarayonida davlat va jamoat xizmatchilari o'rtasidagi munosabatlar majmuini amalga oshiriladi.[11] Shuningdek, o'zbek olimi E.T. Hojiyeva fikricha, "Jamoat xizmati — bu siyosiy va ma'muriy davlat lavozimlarini egallash faoliyati bo'lib, u davlat boshqaruvida davlat xizmatchilarining lavozimlarni navbatma-navbat egallashi va ularning huquqiy munosabatlarining o'zgarishini o'z ichiga oladi." [12] A. A. Голубева shuningdek, davlat (yoki munitsipal) xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar qatoriga davlat (yoki munitsipal) organlari bilan bir qatorda davlat muassasalari yoki boshqa tashkilotlarni ham kiritadi:

"Davlat xizmati — bu fuqarolar va tashkilotlarning huquq hamda erkinliklarini, shuningdek ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashning normativ tarzda belgilangan usuli bo'lib, u ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ularning amalga oshirayotgan funksiyalari natijalarini iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zlariga bo'ysunuvchi davlat muassasalari yoki boshqa tashkilotlar orqali, bepul yoki davlat hokimiyati organlari tomonidan tartibga solinadigan narxlarda taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi." [13] Л. В. Бесчастнова davlat xizmatini quyidagicha ta'riflaydi:

Davlat xizmati — bu normativ tarzda mustahkamlangan, huquqiy jihatdan asosli va individuallashtirilgan faoliyatdir. Ya'ni, bu davlat organlari hamda ularga bo'ysunuvchi muassasalar tomonidan fuqarolar yoki tashkilotlarning so'rovi asosida yoki ma'lum bir davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan vakolatlarni bajarish tartibida amalga oshiriladigan, maqsadga muvofiq ketma-ket harakatlar majmuasidir. Ushbu faoliyat fuqarolar (yoki tashkilotlar) huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish hamda ta'minlashga yoki ularga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishga qaratilgan foydali natijani ko'zlaydi.[14] Xususan, Л. К. Терещенко fikricha, davlat xizmatlari davlatning jamoat (publik) funksiyalari

bilan yaqin bog'liq. Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ta'kidlaydiki, hokimiyat va tartibga soluvchi vakolatlar haqida gap ketganda, davlat xizmatlari mavjud bo'la olmaydi. Shu munosabat bilan muallif davlat funksiyalarini ikki katta guruhga ajratadi:

1. Davlat funksiyalari, ular davlat xizmatlarini ko'rsatishga imkon beradi va yakuniy foydalanuvchi — fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yo'naltirilgan;

2. Davlat funksiyalari, ular davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq emas.[15] Masalan, H. B. Путило davlat va jamoat xizmatlarini bir xil kategoriyalar sifatida ko'rib chiqadi, davlat xizmatlarini faqat juda cheklangan hollarda ko'rsatishga ruxsat beradi, ya'ni ularni fuqarolar bilan munosabatlar shaxsiy huquq normalari bilan tartibga solib bo'lmaydigan va shu bilan birga davlat-hokimiyat vakolatlarini to'g'ridan-to'g'ri bajarishni talab qilmaydigan hollarda. Masalan, ma'muriy salohiyatdan foydalanishga bog'liq xizmatlar: ishga joylashtirishda yordam ko'rsatish, ma'lumot berish (huquqiy va ayniqsa huquqni qo'llashga oid), shuningdek turli maslahat va boshqa yordam shakllari. Davlat xizmatlarini to'g'ri tushunishga ko'proq mos keladigan misol — bu qiyin hayotiy vaziyatda bo'lgan va tezkor ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarni ishlab chiqish. H. B. Путило o'z asarida to'g'ri ta'kidlaydiki, Rossiyada davlat xizmatlarini qabul qilish hali ko'proq muammolarni keltirib chiqaradi, ularni emas, Germaniya va Fransiyada esa jamoat xizmatlari uzoq va samarali faoliyat yuritib kelmoqda.[16]

### Xulosa

Shuni aytish joizki, "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili davlat xizmatlari sohasini isloh qilishning muhim yondashuviga aylandi. Prezidentimiz ilgari surgan tamoyillardan yana biri – "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ezgu g'oya bugungi kunda davlat xizmatlarining asosiga aylanib ulgurdi. Yuqorida keltirilgan O'zbekistonda davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimining qisqa vaqt ichida yuqori darajani qayd etishi bu o'z-o'zidan sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yaqqol natijasidir. Davlat xizmati tizimidagi islohotlar bugungi kunda jamiyatni to'la demokratlashtirishga va sohada yetuk, malakali va yuksak salohiyatli kadrlar ishlayotganligi bilan izohlanadi. Kadrlar sohasidagi o'zgarishlar o'z-o'zidan amalga oshib qolmayapti albatta. Bunga hukumatning puxta tayyorgarligi va xorijiy davlatlardan olingan tajribaning yuksak darajasi muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, maqolada davlat xizmatini rivojlantirishning global tendensiyalar va xalqaro tajribaga mos keladigan ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan: davlat xizmatlari sifatini oshirish, fuqarolarga xizmat ko'rsatishda inklyuziv muhit yaratish, elektron xizmatlar orqali masofadan turib foydalanish imkoniyatini kengaytirish va davlat organlarining kadr siyosatini takomillashtirish. Davlat xizmatini rivojlantirish va islohotlarni amalga oshirish bugungi kunda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqotchilar, jumladan A. A. Голубева, Л. В. Бесчастнова, Л. К. Терещенко, va H. B. Путило, davlat xizmatlarini huquqiy asosga ega, normativ tarzda belgilangan va fuqarolar hamda tashkilotlarning manfaatlariga yo'naltirilgan faoliyat sifatida tushunishni tavsiya qiladi. Ularning fikricha, davlat xizmatlari davlatning jamoat funksiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, samarali tashkil etilgan xizmatlar orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoyalaydi, davlat boshqaruvi sifatli va shaffof bo'ladi. Xorijiy va mahalliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish, ma'muriy reglamentlarni joriy etish va xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish orqali nafaqat byurokratik jarayonlar soddalashtiriladi, balki

fuqarolarga xizmat ko'rsatish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bois, davlat xizmatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan islohotlar nafaqat ma'muriy tizimni, balki jamiyat va davlat boshqaruvining sifatini oshirishda muhim natija beradi.

Umuman olganda davlat xizmati tizimi va uning takomili o'tmishda ham, hozir ham o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmay kelayotganligi bilan ahamiyatlidir.

#### Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi islohotlarga oid taqdimot bilan tanishdi // <https://daryo.uz/2021/05/10/shavkat-mirziyoyev-davlat-xizmatlari-korsatish-sohasidagislohotlarga-oid-taqdimot-bilan-tanishdi>;
2. O'zbekiston Respublikasida Davlat xizmatini isloh etishning huquqiy asoslari. Baqtriya press. 015-yil
3. "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // <https://lex.uz/docs/2113413>
4. <https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators/interactive-data> Jahon banki indeksi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida Prezidentning qarori, 03.10.2019 yildagi PQ-4472-son <https://lex.uz/docs/-4552053>
6. 2022-yilning 20-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-113-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5971599>
7. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun qabul qilindi. // <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/09/public-service-law/>
8. Abdiyev A. Davlat fuqarolik xizmati –transformatsiya jarayonida // <https://argos.uz/oz/presenter/topic/25>
9. А. М. Марголина и П. Дуткевича. (tahrir ostida). "Davlat boshqaruvida yangi texnologiyalar: Kanada va Rossiya tajribasi ko'zgasida" monografiya. — Moskva: Moskva shahar hukumati huzuridagi Shahar boshqaruvi universiteti, 2013. — 272 bet.
10. Охотский Е.В. "Parlamentda davlat xizmati". — Moskva, 2002
11. Черепанов В.В "Davlat xizmati va kadrlar siyosatining asoslari". — Moskva, 2012. — B. 167.
12. Davlat xizmati: O'quv qo'llanma / Xojiev E.T., Ismoilova G.S., Raximova M.A. — Toshkent: Baktريا Press, 2015.
13. Голубева А. А. Ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro hamkorligining yangi shakllarini baholash: iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi. — Sankt-Peterburg, 2007. — 19-bet.
14. Бесчастнова Л. В. Davlat xizmatlarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish: yuridik fanlar nomzodi dissertatsiyasining avtoreferati. — Saratov, 2008. — 12-bet.
15. Терещенко Л. К. Xizmatlar: davlat, jamoat va ijtimoiy // Rossiya huquqi jurnali. — 2004. — № 10. — 19-bet.

16. Путило Н. В. Jamoat xizmatlari: doktrinal tushuncha va normativ tartibga solish amaliyoti o'rtasida // Rossiya huquqi jurnali. — 2007. — № 6. — 3–8-betlar.



INNOVATIVE  
ACADEMY